

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi
hamda notarial idoralarida xizmatlar ko‘rsatish ahvolini “Sirli mijoz”
tamoyili asosida monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi idoralarning va notarial idoralarning xodimlari (bundan buyon matnda xodimlar deb yuritiladi) tomonidan xizmatlar ko‘rsatish ahvolini “sirli mijoz” tamoyili asosida qisqa muddatli tekshirish (bundan buyon matnda “Sirli mijoz” tadbiri deb yuritiladi) tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomning maqsadi “Sirli mijoz” tadbirini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan:

xodimlarning O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalariga va Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga;

notarial idoralari xodimlarining notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiylikiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishi yuzasidan tekshirishlar o‘tkazish orqali aniqlashdan iborat.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi idoralar – davlat xizmatlari markazlari, idoraviy notarial arxivlar, “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi davlat arxivlari, “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasi va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari;

nojo‘ya xatti-harakatlar – qonunchilik hujjatlarini, mehnat shartnomalari va litsenziya talablari va shartlarini xodimlar tomonidan buzish holati;

notarial idoralari notariuslari – davlat notarial idoralari va xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar;

sirli mijoz – real xizmat oluvchi shaxs sifatida davlat xizmatlari (notarial harakat) jarayonida qatnashadigan, shu bilan birga xizmat ko‘rsatishning sifati, muddati, shart-sharoiti va xodimlarning odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini

aniqlash uchun adliya organining xodimi yoki shartnoma asosida jalb qilingan konsalting firmalar tomonidan amalga oshiriladigan monitoring tadbiri.

3. “Sirli mijoz” tadbirini amalga oshiruvchi shaxs xodimlar tomonidan nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir qilish holatini monitoring qilishi lozim.

4. “Sirli mijoz” tadbiri O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari (bundan buyon matnda adliya organi deb yuritiladi) tomonidan adliya organi rahbarining topshirig‘iga asosan davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi idoralari xodimlari va notarial idoralari notariuslariga nisbatan quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

xodimlar xatti-harakatlarining sifati va tezkorligi adliya organida shubha uyg‘otganda, ushbu sohada huquqbuzarliklar sodir etilayotganligi haqidagi ma‘lumotlarga aniqlik kiritish zarurati tug‘ilganda;

jismoniy va yuridik shaxslarning davlat xizmatlari ko‘rsatish va notarial harakatlar jarayonidan noroziligi haqidagi murojaatlariga asosan.

5. “Sirli mijoz” tadbirida xodimlarni huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish va undash, shu jumladan nizoli, bahsli holatlarni va kamchiliklarni sun‘iy ravishda keltirib chiqarish taqiqlanadi.

6. “Sirli mijoz” tadbirlarini o‘tkazish orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi idoralarda hamda notarial idoralarda sodir etiladigan suiiste‘molchiliklarni aniqlash maqsadida professional konsalting firmalarini autsorsing shartnomasi asosida jalb qilish mumkin.

Tadbirkorlik subyektlari autsorsing shartnomasiga asosan monitoring o‘tkazishga jalb qilingan hollarda, uning natijasida olingan ma‘lumotlarni adliya organi rahbari ruxsatisiz oshkor qilish ta‘qiqlanishi, tadbirkorlik subyektining monitoring jarayonidagi vakolati chegarasi hamda monitoring o‘tkazish shartlari va muddatlari o‘zaro ikki tomonlama shartnomada nazarda tutiladi.

7. “Sirli mijoz” tadbirlari va unda foydalaniladigan texnik vositalar mazkur nizomda ko‘rsatilgan holatlardan tashqari boshqa maqsadlarda o‘tkazilishi va foydalanilishi qati‘yan taqiqlanadi.

2-bob. “Sirli mijoz” tadbirini amalga oshirish

8. “Sirli mijoz” tadbirini amalga oshiriyatgan mas‘ul xodim tomonidan davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi va notarial idoralarga fuqaro sifatida borish, o‘ziga ma‘lum bir xizmatning ko‘rsatilishini so‘rash yoki tegishli xizmat ko‘rsatilishidan oldin imkon darajasida ushbu idora ish faoliyatini kuzatish orqali mazkur nizomga ilovaga muvofiq “Sirli mijoz” tadbirlari bo‘yicha namunaviy tekshirish cheklistini to‘ldiradi.

9. “Sirli mijoz” tadbirini o‘tkazish davomida:

a) davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi adliya organi va muassasalarida:

bino atrofi va xonalarning tozaligi;

xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi;

xizmat ko‘rsatish vaqtida muomala va kiyinish madaniyatiga rioya etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilinishi ahvoli;

stress vaziyatlarda xodimlarning fuqarolar bilan qanday munosabatda bo‘lishi;

xodimlarning bilim darajasi;

xodimning korrupsion holatlarga moyilligi;

xodim tomonidan xizmat ko‘rsatish jarayonida qonunchilik hujjatlariga lozim darajada rioya etayotganligi (masalan, xizmat ko‘rsatilishi uchun ortiqcha hujjatlar so‘rash yoki aksincha zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilmasligi) holatlari o‘rganiladi.

b) notarial idoralarda:

bino atrofi va xonalarning tozaligi;

xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligi;

xizmat ko‘rsatish vaqtida muomala va kiyinish madaniyatiga rioya etilishi;

Notariuslarning kasb etikasi qoidalariga amal qilinishi;

stress vaziyatlarda xodimlarning fuqarolar bilan qanday munosabatda bo‘lishi;

notariusning bilim darajasi;

notarius va xodimlarining korrupsion holatlarga moyilligi;

notarius tomonidan xizmat ko‘rsatish jarayonida qonunchilik hujjatlariga lozim darajada rioya etilmayotganligi (masalan, xizmat ko‘rsatilishi uchun ortiqcha hujjatlar so‘rashi yoki aksincha zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilmasligi) holatlari o‘rganiladi.

10. “Sirli mijoz” tadbirini o‘tkazishda yashirin diktofon yoki video kuzatuv moslamalaridan foydalanilishi mumkin.

Ushbu moslamalar yordamida yozib olingan ma’lumotlar adliya organi tomonidan to‘liq qabul qilib olinadi va ulardan mazkur Nizomda ko‘rsatilgan hollardan tashqari boshqa maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

11. “Sirli mijoz” tadbiri o‘tkazilgandan so‘ng, uning natijalari bo‘yicha adliya organi (muassasasi) rahbariga axborot beriladi.

Adliya organi (muassasasi) rahbari “Sirli mijoz” tadbiri natijalarini ko‘rib chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

12. Adliya organi rahbari “sirli mijoz” tadbiri natijalaridan davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi idoralari xodimlariga va notarial idoralari notariuslariga nisbatan quyidagicha foydalanadi:

xizmat tekshiruvi, reytda va rejadanda tashqari tekshirish uchun asos sifatida;
o‘rganish (tekshirish) natijalariga ko‘ra, adliya organlari va muassasalarining ish faoliyati samaradorligini yanada yaxshilash;
“tashqaridan qaraganda” aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etish;
xodimlarning halolligini baholash;
salbiy harakatlarni amalga oshirgan xodimlarni kelgusida bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash.

xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan, shu jumladan nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishga, nopok va korrupsion holatlarga moyilligi bo‘lgan xodimlarga nisbatan tegishli choralarni qo‘llash.

13. “Sirli mijoz” tadbiri davomida davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi va notarial idoralarda ortiqcha pul mablag‘lari undirish yoki korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yish holatlari aniqlangan taqdirda xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, natijasiga ko‘ra to‘plangan hujjatlar tegishlilikiga ko‘ra adliya organi (muassasasi) rahbariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalariga (taqdimnoma orqali) va (yoki) huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

14. Notarial idoralarda xizmat tekshiruvlari Vazirlar Mahkamasining “Notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qaroriga asosan amalga oshiriladi.

15. Davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi idoralarda xizmat tekshiruvlari O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2020-yil 24-martdagi 68-um-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Adliya organlari va muassasalarida HR-menejment tizimi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Notarial va davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi idoralarda o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasidan norozi bo‘lgan xodim yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

3-bob. Yakunlovchi qoida

17. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.